

<b>2-mavzu</b>	<b>Guashda ishlash texnikasi. Sovuq ranglardan tashkil topgan natyurmortning rangtasviri</b>
----------------	--

### **MASHG'ULOTINING O'QITISH TEXNOLOGIYASI**

Vaqti – 8 soat	talbalar soni 20-27 nafar
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	amaliy
<b>Mashg'ulotining rejasi</b>	<p>1. Guashda ishlash texnikasi. Sovuq ranglardan tashkil topgan natyurmortning rangtasviri. Natyurmort mavzusi asosida ishlash masalalari. <b>1-ilova</b></p> <p>2. Rangtasvirga qo'yiladigan talablar. <b>2-ilova</b></p> <p>3. "FSMU" uslubi. <b>3-ilova</b></p> <p>4. Adabiyotlar bilan ishlash <b>4-ilova</b></p>

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Talabalarga Guashda ishlash texnikasi. Sovuq ranglardan tashkil topgan natyurmortning rangtasviri ko'nikma va malakalarini beradi. Eskizlar ishlashni o'rgatadi

<b>Pedagogik vazifalar:</b> Guashda ishlash texnikasi. Sovuq ranglardan tashkil topgan natyurmortning rangtasviri haqida tushuncha beradi. Rangtasvirda mavzu asosida ishlash usullarini o'rgatadi. Rangtasvirga qo'yiladigan talablarni o'rgatish.	<b>O'quv faoliyatining natijalari:</b> Guashda ishlash texnikasi. Sovuq ranglardan tashkil topgan natyurmortning rangtasviri haqida tushunchaga ega bo'ladi. Rangtasvir asosida ishlashni o'rganadi. Rangtasvirga qo'yiladigan talablarni bilib oladi
<b>O'qitish uslubi va texnikasi</b>	Amaliy ish, master klass texnologiyasi
<b>O'qitish vositalari</b>	O'quv uslubiy kompleks, o'quv qo'llanma, tarqatma materiallar, ko'rgazmali plakatlar, slaydlar.
<b>O'qitish shakli</b>	Guruhi bo'lib ishslash.
<b>O'qitish shart-sharoitlari</b>	Kompyuter va multimediali vositalar bilan jihozlangan auditoriya va asbob-uskuna, materiallar bilan jihozlangan ustaxona [3.3.]
<b>Monitoring va baholash</b>	Mashg'ulot bo'yicha savol-javob, tahlil natijalari.

### **AMALIY MASHG'ULOTNING TEXNOLOGIK XARITASI**

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Magistr
1-bosqich Kirish	1. Guashda ishlash texnikasi. Sovuq ranglardan tashkil topgan natyurmortning rangtasviri haqida ma'lumot beradi. <b>1-ilova</b>	Rangda mavzu asosida natyurmort ishslash masalalari haqida ma'lumot beradi
2-bosqich. Asosiy	2. Ekranda natyurmortga qo'yiladigan talablar haqida namoyish qiladi va ularga qisqacha ta'rif beradi (2-ilova).	Ekranga rangtasvir faniga qo'yiladigan talablar haqida namoyishni ko'radi.
	3.Mavzu bo'yicha Adabiyotlar bilan ishslash uchun ro'yhat beradi (3-ilova)	3.Mavzu bo'yicha Adabiyotlar bilan tanishadi.
3-bosqich Yakuniy	Darsga yakun yasab, mavzu bo'yicha uyga vazifa beradi	Mavzu bo'yicha uyga vazifa oladilar.

**Guashda ishlash texnikasi. Sovuq ranglardan tashkil topgan natyurmortning rangtasviri haqida umumiyl tushuncha (1-ilova)**

Guash (italyancha guazzo – suvli bo’yoq) kukun bilan suv-yelim bog’lovchilari (bug’doy kraxmali) va oq bo’yoq (belila), aralashmasidan iborat bo’yoq; shuningdek, shu bo’yoq bilan ishlangan tasviriy san’at (rassomlik) asari. Qog’oz, karton, faner, mato, suyakka naqsh, tasvir ishlashda qo’llaniladi. Akvarel turi sifatida paydo bo’lgan. Guashdan o’rtalaridan guash bo’yog’i sanoatda ishlab chiqarila boshlagach, mustaqil usulga aylandi. Guash akvareldan oq bo’yoq qo’shilganligi, bo’yoq qatlaming qalinligi bilan farq qiladi. O’zbekistonda 1920-yillardan, ayniqsa Ikkinci Jahon urushi yillaridan (“O’zTAG oynasi”, “Jangovar qalam” plakatlari va b.) keng rivojlandi. Hozir guash plakat, amaliy grafika va kitob grafikasi,teatr dekoratsiyasi eskizlari, bezak ishlari, miniatyura, mahobatli rangtasvir, naqqoshlik va boshqalarda keng foydalaniadi.

Guash bo’yoqlari va ular bilan ishlash. Guash bo’yog’iga ham suv bilan ishlatiladi. Tayer guash bo’yoqlari shisha bankachalarda, tyubiklarda chiqariladi va ko’rinishdan quyuq kaymoqqa o’xshaydi. Ular qurib qolmasligi uchun ustiga suv, gletsirin, olcha shirasining kuchsiz eritmasi quyiladi.

Guash asosan dekorativ bezak ishlarida gazeta, plakatlar chiqarishda, shiorlar yozishda ishlatiladi. Guashdan shunday foydalanish kerakki, u muyqalamda oson olinishi, kog’oz sirtiga tekis yopishishi, quriganda uqalanib, surkalib ketmasligi, ostidagi bo’yoq kavatini to’la berkitadigan bo’lishi lozim.

Dekstrin, gletsirin va boshqalar guash bo’yoqlarining tarkibiy bog’lovchilari xisoblanadi. Dekstrin kraxmal elimning asosiy turi bo’lib, kraxmalni yoki suyuq kraxmalni qayta ishlash yo’li bilan xosil kilinadi. U oq va sariq tusda bo’ladi. Oq dekstrin faqat qizdirilgan suvda eriydi va sovuganda bo’tqasimon ko’rinish kasb etadi. Sariq dekstrin sovuq suvda oson erib, dektrin elimini hosil qiladi. Gletsirin tiniq, suyuqlik bo’lib, suv bilan yaxshi aralashadi, bo’yoqlarni ko’rib qolishidan saqlaydi. So’rilgan bo’yoq qavatlarining nafis bo’lishini ta’minlaydi.

Natyurmortni tuzish mobaynida shakli mayda naqshlar bilan bezatilgan, konstruktsiyasi murakkab narsalardan yiroqda bo’lgan ma’qul. Murakkab buyumlargacha burmali issiq rangdagi gazlamani kiritish mumkin. Natyurmort qo’yilmasi haddan tashqari murakkab shaklli va rang jihatdan rang-barang bo’lishi qo’yilmadagi rang munosabatlar mohiya-tini tushunishga qiyinchilik tug’diradi. Shuning uchun oq ranlardagi buyumlardan tashkil topgan natyurmortni maqsad qilib olamiz.



Bir-biriga o'xshash buyumlardan ham natyurmortni chiroyli tashkil qilib, har bir narsani shunaqa joylashtirish kerakki, buyumlar o'ziga xos jozibasini ochib ko'rsatib berish ma'qul. Tez buziladigan (meva, sabzavot, baliq va hokazo), uzoq vaqt chiziladigan rangtasvirlarni ishlash qiyin, shu sababli bu sahnalashtirilgan natyurmortlarning tez bir yoki ikki seansli etyud - chizmalariga ishlash ma'qul. Lekin hozir har xil narsalar ishlab chiqarilgan, to'g'ri bu estetik tarbiyaviy kuchini susaytiradi. Shu sababli haqqoniy, meva, sabzavot, gullar, non, tuzlamalar, oshxonalaridan natyurmortlar tasvirlanadi.

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari (2-ilova)**

Asosiy ranglar qaysilar?	*Sariq, qizil, zangori.	Sariq, qizil, jigarrang	Qizil, jigarrang, qora
Binolarning ichki qismi nima deyiladi?	*inter'yer	fasad	ekster'yer
Bir necha yoki ko'p tasviriy vositalar, texnik imkonyatlar qo'llab tasvir yaratish nima deyiladi?	*aralash texnika	monumental	plakat
Bir-biridan rang va tus jixatidan keskin ajralib turuvchi bo'yoq xillari qanday nomlanadi?	*Kontrast ranglar.	Axramatik ranglar	Xromatik ranglar
Asosiy ranglar qaysilar?	*Sariq, qizil, zangori.	Sariq, qizil, jigarrang	Qizil, jigarrang, qora

### **FSMU texnologiyasi**

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Savol	“Rangtasvir” fanning predmeti va mazmuni to’g’risida nimalarni bilasiz?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko’rsating	
(M) Ko’rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

### **Adabiyotlar ro’yxati (3-ilova):**

1. S.Abdirasi1ov, N.Tolipov Rangtasvir. Innovatsiya ziyo, T. 2019
2. S.Abdirasilov, N.Tolipov Rangtasvir. “Poligraf”, T. 2017
3. Abduraxmonov G‘.M Kompozitsiya asoslari. “Iqtisod-moliya”, T. 2010

### **2.Qo’shimcha adabiyotlar:**

4. Aggy Boshoff. Oil-painting Workshop, First American Edition, 2006 Published in the United States by DK Publishing, 375 Hudson Street, New York, 10014
5. Suzanne Brooker Techniques for rendering sky, terrain, trees and water.
6. Victoria Adams. All rights reserved.
7. Sultonov X. “Rangtasvir” (grizaylda ishslash) metodik qo’llanma TDPU rizografi, 2014
8. S.Abdirasilov, S.Mahkamova, N.lsaxojiyeva Tasviriylar san’at to‘garagi Toshkent, “Sharq”, 2012
9. S.Abdirasilov, S.Mahkamova. “Iste’dod” Toshkent, TDPU rizografi, 2014

### **3.Elektron ta’lim resurslari**

10. [www.tdnu.uz](http://www.tdnu.uz)
11. [www.ZivoNet.Uz](http://www.ZivoNet.Uz)
12. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
13. [tdpu-internet.ped](http://tdpu-internet.ped)

### **Mavzu yuzasidan uyg'a vazifa (4-ilova):**

Uy-ro’zg’or buyumlaridan tashkil topgan natyurmort rasmini qog’oz yuzasida to’g’ri tasvirlash. Rasm ishslashda uning konstruktiv tuzilishlarini hisobga olish. Tasvirlash jarayonida alohida narsalarni va ularning qismlarini kattakichikligini har doim bir-biriga taqqoslab borish zarur. Rang bilan ishslash jarayonida shakllarning xarakteriga aniqlik kiritib borish zarur. Tasvirlash jarayonida ishni boshidan oxirigacha, albatta, metodik ketma-ketlikka rioya qilish muhimdir.